



FROM THE HISTORY OF THE KARAKALPAK SCHOOL OF LANGUAGE AND LITERATURE.

I.G.Yelmuratov

QQDU O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston tarixi kafedrası PhD docent
ikmatulla_elmuratov@mail.ru

Annotation: This article is dedicated to the study of the Karakalpak language, folklore, literature, and science under historical conditions at the beginning of the 20th century, covering a long period, the first bibliographic changes in the study of the Karakalpak language and the founders of its school, and the analysis of the contributions of Russian scholars, renowned Soviet Turkologists, and local scholars to the study of the Karakalpak language.

Keywords: Karakalpak language, literature, folklore, object of study, Russian scholars, Turkologists, scientific research, institute.

ИЗ ИСТОРИИ КАРАКАЛПАКСКОЙ ШКОЛЫ ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ.

Аннотация: Данная статья посвящена изучению каракалпакского языка, фольклора, литературы и науки в исторических условиях начала XX века, охватывающих многолетний период, первым библиографическим изменениям в изучении каракалпакского языка и создателях его школы, анализу вклада русских ученых, известных советских тюркологов и местных ученых в изучение каракалпакского языка.

Ключевые слова: каракалпакский язык, литература, фольклор, объект изучения, русские ученые, тюркологи, научное исследование, институт.

QORAQALPOQ TIL VA ADABIYOTI MAKTABI TARIXIDAN.

Annotatsiya: Mazkur maqolada XX asr boshlariga xos bo‘lgan tarixiy sharoitlarida Qoraqalpoq tili, folklori adabiyoti va ilm-fan sohasi ko‘p yillik davrni o‘z ichiga olgan o‘rganishlar, qoraqalpoq tilini o‘rganish va maktabini yaratganlar to‘g‘risidagi birinchi bibliografik o‘zgarishlar, Qoraqalpoq tilini o‘rganish bo‘yicha rus olimlari, taniqli sovet turkologlari va mahalliy olimlarning hissasini tahlil qilishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Qoraqalpoq tili, adabiyoti, folklori, o‘rganish obekti, rus olimlari, turkolog olimlar, ilmiy tadqiqot, institut.

Kirish: Tarix bu o‘tmish. Har bir xalqning madaniyati, tili, tarixi, o‘tmishi bo‘lgani kabi qoraqalpaq xalqining ham o‘z tarixi bor. Qoraqalpoq tili va adabiyotining folklori va

o‘rganilgan davrlarda katta yangilikni talab etadi. Yashirmaymiz dastlabki izlanishlar vaqtida ya’ni qoraqalpoq tilini turkiy tilli xalqlar asosida o‘rganishda rus olimlari ya’ni turkolog olimlar tomonidan olib borilganligi tarixdan ma’lum. XX asr o‘rtalariga kelib, o‘troq xalq vakillaridan dastlabki, olimlarning yetishib chiqishi bilan o‘tgana boshlandi, kengaydi va qoraqalpoq tili, adabiyotini o‘tganish maktablari paydo bo‘la boshlagan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. N.A.Baskakov Qoraqalpog‘istonni o‘rganishni davom etib, 1929-yili viloyat ta’limida ilmiy xodim vazifasini bajarib, rus tilida qoraqalpoq ilmiy grammatikasini yozib nashr qilgan.

Marat Ko‘ptileovich Nurmuxanmedov “Qoraqalpoq adabiyotining rivojlanishiga rus adabiyotining ta’siri” nomli mavzuda nomzodlik dissertatsiya va monografiyasida ko‘rsatilgan.

Ko‘p asrlik tarixiga ega bo‘lgan qoraqalpoq xalqi o‘z tili va adabiyoti bilan boy bo‘lib, o‘z hayot tarzi bo‘yicha ko‘plab janrlarga ega. Mashhur ma’rifatchi va olim Kalli Aymbetov-Orfografiyamizga eng to‘g‘ri harflarni tanlab[1], madaniyatimizni va tilimizni shu darajaga olib keldik“ -deb ko‘rsatadi.

Qoraqalpoq tili, folklori adabiyoti va ilm-fan sohasi ko‘p yillik davrni o‘z ichiga oladi. Qoraqalpoq tilini o‘rganish va maktabini yaratganlar to‘g‘risidagi birinchi bibliografik asar “Qoraqalpaq tilin izertlevshiler” A.Bekbergenov tomonidan yozilgan va 1984-yilda “Qoraqalpog‘iston” nashriyoti tomonidan nashr etilgan. Bu kitobda qoraqalpoq tilni o‘rganish bilan shug‘ullangan olimlar hayoti, ilmiy xizmatlari, yo‘nalishlari va tajribalari haqida so‘z boradi[2].

Tadqiqot metodologiyasi. XX asr boshlarida alfavit va orfografiya, terminologiya, xalq dasturlar va yashash joylari (dialektika) bo‘yicha taqsimlangan. 1930-yillardan boshlab qoraqalpoq tili fonetikasi, grammatikasi, leksikasi, tarixi va dialektlari ilmiy jihatdan o‘rganilgan.

Tadqiqotchilarning o‘lkani o‘rganish bo‘yicha etnik birikmasi yashash tarzi, etnografiyasi, tillar birikmasi va turkiy xalqlarga mos yashash tarzini o‘rganishdan ibora bo‘lgan.

Shu ilmiy tadqiqot natijasida qoraqalpoq tilining tadqiqot yo‘nalishi va obyektini belgilab olishgan.

Tahlil va natijalar. Bu tadqiqotlarning boshida va gazeta jurnallarda chop etilishida rus olimlari, taniqli sovet tyurkologlari S.Ye.Malov, Ye.D. Polivanov, N.A.Baskakov, A.K.Borovkov va boshqalarning hissaları katta bo‘lgan[3]. Bular xalq orasiga “mateva” etik, “duo‘qat” chopon, “selkildek” cho‘girmalar sotib olib kiyingan. Sababi musulmon xalqlar orasidagi o‘ziga xos kiyinish tarzi va hurmat ramzi edi. Bularning orasidan N.A.Baskakov Qoraqalpog‘istonni o‘rganishni davom etib, 1929-yili viloyat ta’limida ilmiy xodim vazifasini bajarib, rus tilida qoraqalpoq ilmiy grammatikasini yozib nashr qilgan[4]. Bu olimlar qoraqalpoq tilining tadqiqot yo‘nalishini belgilab berish bilan birga ilmiy maktabining ham yo‘nalishini belgilab berdi va asoschilari hisoblangan[5]. N.A.Baskakovning 1932-yili kompleks ilmiy-

tadqiqot institutini tashkillashtirishda, ilmiy maktab yaratishda va Qoraqalpog‘istonning mahalliy kadrlar tayyorlashdagi[6] xizmati tarixda qolgan.

So‘ng 1950-yillardan keyin qoraqalpoq tili va adabiyotini tadqiqotchilarning qatoriga mahalliy milliy kadrlar to‘lishib bordi.

Marat Ko‘ptileovich Nurmuxanmedov filologiya fanlari doktori, akademik, O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston Respublikasiga mehnati singan fan arbobi. Qoraqalpog‘istondan chiqqan birinchi akademik.

Aspiranturada o‘qib yurgan davrida L.I.Timofeyev va qoraqalpoq tili va adabiyotini o‘rgangan tadqiqotchi olim N.A.Baskakovdan dars oladi.

1953-yili “Qoraqalpoq adabiyotining rivojlanishiga rus adabiyotining ta’siri” nomli mavzuda nomzodlik dissertatsiyasini himoya qiladi.

Moskvadagi SSSR Fanlar akademiyasida ishlab qolish imkoniyati bor edi.

Biroq M.Nurmuxammedov tug‘ilgan o‘lkasiga qaytib keladi. Sababi, bu davrda qoraqalpoq olimi N.Davqarayev vafot etgan edi. Qoraqalpog‘istonda ilmiy darajaga ega bir tilshunos, adabiyotshunos olim yo‘q edi. Shuning uchun, Qoraqalpog‘istonda ilmiy-tadqiqot ishlariga boshchilik qilish vazifasi 23 yoshar M.Nurmuxammedovga yuklandi.

U dastlab, pedagogika fakultetlari talabalari G.Yesemuratov, A.Karimov, S.Niyetullayev, S.Nurjanov, yozuvchilardan B.Ismaylov, G‘.Seytnazarov, S.Saliyevlarni iziga ergashtirib, dastlabki kompleks ekspeditsiyalarni tashkillashtirdi.

1954-yili sentabr oyida qoraqalpoq tili va adabiyoti masalalariga bag‘ishlangan butun ittifoq konferensiyada Berdaqning ijodini tadqiq qilishdagi yuksalishlar bilan kamchiliklarni ko‘rsata oldi. Buni rus olimlaridan K.K.Yudaxin, N.A.Baskaov, S.P.Tolstov, T.A.Jdankolar qo‘llab quvvatladi[7]. Shuning natijasida qoraqalpoq adabiyoti haqida yolg‘on maqolalar yozib yurgan A.Savitskiy, I.Yefimov, D.Sonichev, N.Narenov, Ignatyev, Milchakovlarning ijodiga nuqta qo‘yildi. Shu asosda Berdaq ijodi bo‘yicha ilmiy maktab yaratilgan.

1965-yili “Qoraqalpoq prozasining rivojlanish yo‘llari” nomli mavzusida doktorlik dissertatsiya himoya qildi. 1966-yili O‘zFAning xabarchi a‘zosi bo‘lib saylandi va Akademiyada tarix, tilshunoslik va adabiyotshunoslik bo‘limini boshqardi. 1974-yili Fanlar akademiyasining haqiqiy a‘zosi bo‘lgan, Til va adabiyot institutining direktori lavozimida ishlagan.

1985-1986-yillari Nukus Davlat universitetining rektori bo‘lib ishlagan. Uning ilmiy mehnatlari o‘zbek, qoraqalpoq, rus, venger, ingliz, turk tillarida joriy etildi. Bombay (1969), Madras (1969), Boloniya (1972), Galle (1973), Bog‘dod (1975), Istanbul (1979) shaharlarida ijtimoiy fanlar, adabiyot masalalari bo‘yicha bayonotlar qilgan. Bir qancha monografiyalarning va adabiyot muammolariga bog‘liq 300 dan ortiq ilmiy maqolalarning muallifi.

M.K.Nurmuxammedov 1969-1985-yillarda doktorlik dissertatsiyalarni himoya qilish bo‘yicha Ilmiy kengashning raisi bo‘lib ishlagan. Ko‘pchilik olimlarni yetishtirib chiqardi. Uning o‘zi o‘n bir fan doktorining, o‘n to‘qqiz fan nomzodining ilmiy rahbari va opponentlari

bo‘lgan. Ularning orasida respublikamizdan chiqqan I.Sag‘iytov, N.Japaqov, Nasurullayeva, K.Mambetov, S.Bahadirova, G.Yesemuratov, S.Niyetullayev, J.Narimbetov, Kamal Qudaybergenov, K.Sultanov, A.Qojiqbayev, I.Qurbanbayev, K.Kamalov, A.Alimov, K.Qudaybergenovlarga o‘xshagan taniqli olimlar bor edi. Demak, akademik M.K.Nurmuxammedov qoraqalpoq adabiyotchilarining butun bir avlodini tarbiyalab bergan[8] va maktab yaratgan akademik. Marat Nurmuxammedov fan sohasida qiziquvchiligi bilan ilm sohasida iz qoldirgan atoqli olim. Uni O‘zbekiston yoki Qoraqalpog‘iston Respublikasi emas, balki butun dunyo tan olgan ko‘p yo‘nalishli akademik deb bilamiz.

Unda adabiyot nazariyasi tarixining umumiy muammolari, sharq xalqlar adabiyoti va madaniyati bilan munosabatlar, adabiyot janrlarining rivojlanishi, folklor va xalq og‘zaki ijodini chuqur o‘rgangan Qoraqalpoq fan sohasidagi birinchi akademik.

M.K.Nurmuxammedov ko‘plab xalqaro konferensiyalar va simpoziumlarning qatnashuvchisi va tashkilotchisi bo‘lgan. Turkolog, tilshunos va etnograf olim.

M.K.Nurmuxammedov boshchiligida bir qancha nomzodlik dissertatsiyalar himoya qilingan.

Bundan tashqari, O‘zbekiston, Turkmaniston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston respublikalaridagi doktorlik va nomzodlik ishlariga opponent bo‘lgan. Akademik M.K.Nurmuxammedov ilmiy maktab yarata oldi. Uning fan sohasidagi asosiy yo‘nalishiga zamonaviy o‘quv adabiyotlarining o‘zaro bog‘likligi, rus tili adabiyotlari orqali O‘rta Osiyo va Qozog‘iston, xalqlari bilan til adabiyot va tariximizni ko‘rsatishni maqsad qilgan. Bu bo‘yicha 400 dan ziyod maqola va kitoblar yaratgan.

Uning ilmiy mehnatlari o‘zbek, qoraqalpoq, rus, venger, ingliz, turk tillarida joriy qilindi. Bombay (1969), Madras (1969), Boloniya (1972), Galle (1973), Bog‘dod (1975), Istanbul (1979) shaharlarida ijtimoiy fanlar, adabiyot masalalari bo‘yicha bayonatlari berdi.

Qoraqalpoq adabiyotshunoslik ilmidagi so‘z bo‘lishi ko‘p yillik tarixga borib taqaladi. Mashhur ma‘rifatchi olim, qoraqalpoq xalqining dastlabki harf tanlovdan boshlab madaniyatimizning, adabiyotimizning bugungacha shakllanishida katta hisssasi bor olim Qalli Ayimbetov hisoblanadi. Qoraqalpoq folklorshunosligining shakllanishini va ilmiy maktab yaratilishini Qalli Ayimbetovning ijodiyoti va taqdiridan ajratib qarash mumkin emas[9]. Birinchi “Yegedeler savati” dan hozirgi fundamental ilmiy mehnatlarga, dastlabki savodsizlarni savodlandirishdan bugungi ko‘ngacha fan doktorlarining yetishib chiqishiga katta hissa qo‘shib, asos yaratib bergan. Bu sohada xalq durdonalarini eng oddiy yig‘uvchidan fan doktori, professor ilmiy unvonigacha yetib borgan[10] va mahalliy xalqdan dastlabki ilmiy maktab yaratgan.

Qoraqalpoq og‘zaki adabiyotlarining har xil namunalarini fanda qo‘lladi va nashriyotda joriy etgan. Qoraqalpoq og‘zaki adabiyoti bo‘yicha tadqiqot ishlarini davom ettirib, bir qator monografiyalar, dissertatsiya ishlari yozilgan. Bunga misol tariyqasida, ilmiy maktab davomchilari N.Davqarayevning, I.Sag‘itovning, Q.Maqsatovning, A.Karimovning, A.Aliyevning, N.Kamalovning, A.Tajimuratovning ilmiy mehnatlarini aytib bo‘ladi[11].

Professor Q.Maqsetov qoraqalpoq folklorini to‘plab nashr etgan. Ilmiy jihatdan yetarlicha boyitgan, rag‘batlantirgan va boyitgan olim bo‘lish bilan bir qatorda ilmiy-amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etgan ustoz va yetakchi olim hisoblangan[12]. U o‘z davrida ilm-fan bilan aloqada bo‘lgan va unumli natijalarga erishgan, o‘z xalqining ma‘naviy dunyosini boyitish yo‘lida tinimsiz xizmat qilgan insonlardan biridir. O‘zidan oldingi yo‘l boshlovchilar N.Davqarayev va K.Ayimbetovning muvaffaqiyatli nashrlarini qo‘llab-quvvatlashda ham milliy ilmiy markazning o‘rnini keng ko‘lamda katta javobgarlik, tinimsizlik, talabchanlik bilan shug‘ullandi. Natijada, qoraqalpoq milliy folklor o‘zgarishlarini o‘rganishga, mustahkamlashga va to‘ldirishga qodir bo‘lgan kishilar soni ko‘payib borgan. Maqsetov rahbarligida ilmiy tadqiqotlar olib borish rejalashtirilgan. Qoraqalpoq folklorining yirik janrlari bo‘yicha maxsus izlanishlar boshlangan. Misol uchun, Qoraqalpoq xalq dostonlari to‘g‘risidagi Maksetovning o‘zining Qoraqalpoq qahramonlik dostoni “Qirq qiz”, (1958) uning ilmiy maslahatlari asosida A.Aliyevning “Qoraqalpoq xalq dostoni «Maspatsha”, (1965), J.Xoshniyazovning “Alpamis” dostonining qoraqalpoq versiyasiga tarixiy folklorlik xarakteristika» (1978) nomli mavzular bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari, ularning mualliflari filologiya fanlari nomzodi degan ilmiy darajaga ega bo‘ldi.

Boshqa har xil folklor janrlari bo‘yicha Q.Mambetnazarov “Qoraqalpoq xalqi ertaklari”(1967), A.Alimov “Qoraqalpoq xalq qo‘shiqlari” (1969), T.Niyyetullayev “Qoraqalpoq xalq hikoyalari” (1971), M.Nizamatdinovning “Rossiyadan keying qoraqalpoq she‘riyatining rivojlanish yo‘li“ (1971), Q.Ismoilov “Qoraqalpoq bolalar adabiyoti rivojlanishi” (1971), Q.Jumajanov, “Oxunning poeziyasidagi folklor va individual an‘ana” (1985), K.Palimbetovning “Qo‘rqit ota va qoraqalpoq folklori” (1997), M.Jumamuratovanning “Xalq qo‘shiqlari asarlarida folklor an‘analari” nomli ilmiy mashg‘ulotlar olib borish va shakllantirishda, folklor ta‘limini rivojlantirishga o‘z hissalarini qo‘shdi. Shunday tashabbuslar bilan Q.Maksetovning boshchiligida qoraqalpoq folklorshunoslarning maktabi paydo bo‘ldi[13].

Q.Maksetov o‘z davrida qoraqalpoq adabiyoti muammolari bo‘yicha ham yetakchi mutaxassislar tayyorlashga katta hissa qo‘shgan. Uning rahbarligida K.Bayniyazov “Ayapbergen Musayevning badiiy uslubining o‘ziga xosliklari” (1968), S.Allayarovning “Mirzag‘aliy Daribayevning ijodiy yo‘li” (1971), Q.Jarimbetovning “Ulug‘ Vatan urushi yillaridagi qoraqalpoq sovet poeziyasi” (1985), I.Uteuliyevning «Xalqaro g‘oyasi va millatchilik xususiyatining evolyutsiyasi qoraqalpoq sovet she‘riyatida” (1988) nomli nomzodlik dissertatsiyalari ishlangan. U nafaqat mahalliy qahramonlar bilan cheklanmadi, balki qo‘shni millat vakillaridan tashqari, folklor mashg‘ulotlarini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotchilarni ham jalb qilishga muvaffaq bo‘ldi. Xorazm viloyatidan S.Ruzimbayev “Xorazm oazisidagi o‘zbek xalq qo‘shiqlarining ideal badiiy o‘ziga xosliklari” (1972), F.Madrahimov”Xorazm Qoraqalpoq adabiyot va folklor aloqalari” (1981) kabi ilmiy mashg‘ulotlar professor Qabil Maqsetov rahbarligida olib borildi. O‘zining ilmiy nomzodlik, ilmiy doktorlik darajalariga tayyorgarlik ko‘rayotgan tadqiqotchilarga g‘amxo‘rlik (rasm

opponent) ko‘rsatishda geografik doirasi keng inson bo‘ldi. Nukus, Toshkent, Almati, Ashxobod, Bishkek shaharlaridagi ilmiy tadqiqot muassasalarining ilmiy kengashlarida o‘ndan ortiq doktorlik dissertatsiyalari, yigirmaga yaqin nomzodlik dissertatsiyalari ma‘qullangan. Bularning barchasi olimning ustozlik yo‘lining qoraqalpoq milliy folklorini kuchaytirishda, rivojlantirishda, obro‘cini ko‘tarishga, O‘rta Osiyo xalqlari markazida ilmiy-madaniy aloqalarni mustahkamlash, milliy folklorini mustahkamlash, madaniyatini rivojlantirish va uning obro‘cini oshirishga yo‘naltirilgan. Bir necha yil davomida u Toshkent va Almati shaharlaridagi ilmiy akademiyalarning filologiya bo‘yicha maxsus ilmiy kengashining rezident a‘zosi sifatida xizmat qildi. Professor Qabil Maksetovning Markaziy Osiyo respublikalarining kundalik nashrlarida, mamlakatimizda va chet ellarda chop etilgan monografiyalari, ilmiy maqolalari, sharhlari, o‘quv-metodik qo‘llanmalari, o‘quv darsliklari, ilmiy-amaliy va ilmiy-tarixiy konferensiyalarda so‘zlagan nutqlari, ham son jihatdan, ham sifat jihatidan qoraqalpoq aholisi o‘rtasida yetuk millat egalarining imkoniyatlari ko‘pligini, o‘zgalarga namuna bo‘ladigan xizmat ko‘rsatishga qodir azamatlar ekanligini dalillovchi o‘zgarishlarida ko‘rsatib bera oladi.

Uning rahbarligi ostida 1954-yildan boshlab umrining oxiriga qadar to‘g‘ridan-to‘g‘ri folklor ekspeditsiyalari tashkil etildi, jami 1000 bosma qog‘ozdan ortiq xalq qo‘shiqlari to‘plangan. Ulardan ba‘zilari nashr etilgan.

Q.Maksetov 1982-yildan boshlab Bonn universiteti professori K.Rayxl bilan birga ishladi va natijada K.Rayxl ingliz tilida «Qaraqalpoq xalqi ertaklari», Jumabay jirovning «Edigiy» dostoni kitoblarini nashr etishda hamkorlik qilgan. Bu yangilik xalqimizning milliy va ma‘naviy merosini dunyo xalqlariga tanitish bo‘yicha tashabbuslarni kuchaytirdi. Qabil Maqsetov o‘zining butun umrini Qoraqalpoq folklorini o‘rganish, targ‘ib qilish, to‘plash va nashr etishga bag‘ishladi. U ilmiy-amaliy va ilmiy-nazariy ahamiyatga ega bo‘lgan millionlab folklor mashg‘ulotlarini to‘g‘ri joyga qo‘ygan, ulardan kerakli natijalarni chiqarib, ko‘p millatli xalqning o‘quv qobiliyatiga ega bo‘lgan, o‘z umrida o‘z o‘rnini topgan va ilmga mos maktab ochishga muvaffaq bo‘lgan edi. Uning qo‘lga kiritgan yutuqlari ota-bobolarimizning ma‘naviy qobiliyatlarini avaylashdan iborat bo‘lganlikdan hammamiz uchun ham qadrlı.

Xulosa va takliflar. So‘ng qoraqalpoq tilining barcha sohaları bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar kengaydi va tilshunoslik Qoraqalpog‘istondagi ijtimoiy fanlardan alohida maktab yaratilib tadqiq qila boshladi.

Mustaqillik yillariga kelib ilm-fan sohasiga katta imkoniyatlar berish natijasida hozirgi vaqtda qoraqalpoq tili, adabiyoti, folklor sohalarida katta ilmiy ishlar olib borilmoqda.

Qoraqalpoq xalqining turmushi, madaniyati, tili, tarixini nomoyan qiluvchi folklorlarini dunyo bo‘ylab, chet tillarida nashr qilib tarqatish.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Айымбетов Қ. «Халық даналығы» Нөкіс: Қарақалпақстан 1988 ж ст 4
2. Бекбергенов А., Пахратдинов Қ. Қарақалпақ тилин изертлеушілер.

(Биобиблиографиялық очерклер).-Нөкис, «Қарақалпақстан», 2000 ж. ст 3

3. Бекбергенов А. Қарақалпақ тилин изертлеушілер. (Биобиблиографиялық очерклер) Нөкис, «Қарақалпақстан», 1984 ж. ст 3

4. Қаллы Аймбетов. Өткен күнлер елеслер. «Қарақалпақстан» БАСПАСЫ Нөкис 1972 ж Ст 255

5. Бекбергенов А., Пахратдинов Қ. Қарақалпақ тилин изертлеушілер. (Биобиблиографиялық очерклер).-Нөкис, «Қарақалпақстан», 2000 ж. ст 5

6. Қаллы Аймбетов. Өткен күнлер елеслер. «Қарақалпақстан» БАСПАСЫ Нөкис 1972 ж Ст 256

7. Қырықбай Байниязов. Академик Марат Көптилеу улы Нурмухаммедов. Нөкис «Қарақалпақстан» баспасы 2000-жыл ст 14

8. Қырықбай Байниязов. Академик Марат Көптилеу улы Нурмухаммедов. Нөкис «Қарақалпақстан» баспасы 2000-жыл ст 15

9. Айымбетов Қ. «Халық даналығы» Нөкис: Қарақалпақстан 1988 ж ст 2. Қарақалпақстан баспасы авторлары саўғасы.

10. Шу ерда

11. Бекбергенов А. Қарақалпақ тилин изертлеушілер. (Биобиблиографиялық очерклер) Нөкис, «Қарақалпақстан», 1984 ж. ст 9

12. Өзбекстан Республикасы илимлер академиясы Қарақалпақстан бөлимининң хабаршы журналы. №1 (184-185) Ж.Хошниязов

13. «Мақсетов мектеби». Профессор Қ.Мақсетовтың 80 жыллығына. 2009-жыл. ККО АНРУ (214) ст 147-148